

**JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2020.T.115.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI**

**MATCHONOVA NARGIZ NORTAYEVNA**

**MAHALLIY BAZALT TOLALARI ASOSIDA MAQSADLI  
TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI OLISH TEXNOLOGIYASINI  
YARATISH**

**05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga  
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical  
sciences**

**Matchonova Nargiz Nortayevna**

Mahalliy bazalt tolalari asosida maqsadli to‘qimachilik mahsulotlari  
olish texnologiyasini yaratish..... 5

**Матчонова Наргиз Нортаевна**

Разработка технологии получения целенаправленных  
текстильных изделий на основе местных базальтовых  
волокон..... 23

**Matchonova Nargiz Nortayevna**

Development of technology for obtaining purpose textile products  
based on local basalt fibers..... 43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 44

**JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2020.T.115.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI**

**MATCHONOVA NARGIZ NORTAYEVNA**

**MAHALLIY BAZALT TOLALARI ASOSIDA MAQSADLI  
TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI OLISH TEXNOLOGIYASINI  
YARATISH**

**05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga  
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/T2119 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jizzax politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Jizzax politexnika instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.jizpi.uz](http://www.jizpi.uz)) (va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Raximov Farxad Xushbakovich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Sulaymonov Rustam Shennikovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Doniyorova Matluba Adashbayevna**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

Namangan muxandislik texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Jizzax politexnika instituti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.T.115.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «31» mart soat 11<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 130100, Jizzax sh., Islom Karimov shox ko'chasi 4- uy. Tel: (372) 226-46-05 Faks: (372) 226-45-47; e-mail: [dgpi\\_info@edu.uz](mailto:dgpi_info@edu.uz), Jizzax politexnika instituti ma'muriy binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Jizzax politexnika institutining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (—raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax sh., Islom Karimov shox ko'chasi 4 uy. Tel: (372) 226-46-05 Faks: (372) 226-45-47

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «15» mart kuni tarqatildi.

(2023 yil «15» martdagi 10-raqamli reestr bayonnomasi).



**A.K.Usmankulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, t.f.f.d., professor

**I.Z.Abbazov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
Ilmiy kotibi, t.f.f.d (PhD), dotsent

**A.Parpiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Mahsulotlar assortimentining turlari kengaymoqda hamda ularga qo‘yilayotgan talablar ham oshib bormoqda. Yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar olinishining zarurligi hamda trikotaj mahsulotlarining sifatini yanada oshirishga qaratilgan texnologiyalarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. «Dunyo miqyosida to‘qimachilik bozorining o‘sishi 2022 - yildan 2030 - yilgacha 4,0% ga o‘sishi va Global Textile Market Size & Share Report, 2022-2030 - yillar hisobotiga ko‘ra 2030 - yilga borib 1420,3 milliard dollarga yetishini hisobga olsak»<sup>1</sup>, bu sohada ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash va ularni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan to‘qimachilik sanoati, xususan, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda bazalt tolalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda yuqori modulli iplardan foydalanib, «texnik tekstil», ya’ni texnik maqsadlarda ishlatiladigan to‘qimachilik mahsulotlari assortimentini kengaytirish va spetsifik xususiyatga ega noan’anaviy (sport buyumlari, avtomobil va mototsikllarning ayrim detallari, qayiq va katerlar korpusi, murakkab profilga ega detallar, turli qurilish panellari, issiqlik, tovush izolyatsion va yonmaydigan buyumlar, qurilish konstruksiyalari, shamol elektrogeneratorlari qanotlari) innovatsion mahsulotlar olishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada bazalt tolasidan «fibra», issiqlik saqlash xususiyati yuqori plitalar, kompozit armatura, kompozitsion to‘rlar kabi qurilish materiallari ishlab chiqarishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda to‘qimachilik sanoatini modernizatsiyalash, mahalliy bazalt xomashyolarini chuqur qayta ishlash, sifatli, raqobatbardosh va eksportga yo‘naltirilgan, import o‘rnini bosuvchi tayyor mahsulotlar, texnik to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora - tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 - yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «...sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, to‘qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish, jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishda to‘qimachilik sohalarining ishlab chiqarishga ta’sirini o‘rganish...»<sup>2</sup> bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, xomashyodan unimli foydalanib hamda chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarga asoslanganligi yangi assortimentdagi yengsimon trikotaj va izolyatsion shnurlarni yaratish va ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 - apreldagi PQ-4277-son «Shisha tola, shisha tolali buyumlar, kompozit materiallar, energiya tejankor

---

<sup>1</sup> <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/textile-market>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi farmoni

isitish asbob-uskunalari va energiya tejashning zamonaviy tizimlarini ishlab chiqishni tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»<sup>3</sup>gi, 2019 - yil 20 - fevraldagi «Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»<sup>4</sup>gi PQ-4198 - son, 2020 - yil 5-maydagi PF-5989-son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida»<sup>5</sup>gi Farmonlari PQ-307-son qarorlari hamda boshqa tegishli normativ-me‘yoriy hujjatlarda mahalliy bazalt tolalaridan to‘qimachilik sanoatida foydalanishni yanada rivojlantirish, mahalliy xomashyo va ikkilamchi resurslar asosida zamonaviy kompozitsion materiallar turlarini ko‘paytirish vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi va mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dissertatsiya ishi mavzusi ilmiy asoslari, ya‘ni bazalt tolasini ishlab chiqarish texnologiyasi bo‘yicha bir qator chet el olimlari, jumladan, M.Park, L. Yang, A.Zindler, K.Velde, Piero De Fazio, K.S.Makarevich, S.E.Artemenko, N.K.Romanichev, D.D.Djigiris, M.F.Maxova, O.V.Tutakov, V.I.Bojko, F.M.Rozanov, L.A.Chernikina va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Bazalt tolasini ishlab chiqarish, unga kimyoviy ishlov berish bo‘yicha nazariy-metodologik asoslarni yorituvchi fundamental masalalarni rivojlanishi bir qator olimlarning ilmiy-tadqiqotlarida amalga oshirilgan, jumladan, A.A.Kurbonov, R.K.Rashidova, L.Sattorov, V.P.Shevchenko, I.Musayev, M.I.Iskandarova va boshqalar bu sohada turli yillarda bazalt tolasiga kimyoviy ishlov berish bilan ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilashda munosib hissa qo‘shganlar.

Bugungi kunda bazalt tolasiga kimyoviy ishlov berish, uni qayta ishlashga yanada jiddiyroq e‘tibor berilayotganligining asosiy sabablaridan biri ushbu tolalarning sinuvchanligigini kamaytirib, ulardan to‘qimachilik mahsulotlarini olish, hamda ular asosida turli maqsadli kompozitsion materiallarni yaratishdir.

Respublikamizda bu boradagi ilmiy izlanishlar hozirgi kun talablari darajasida emas. Mahalliy bazalt tolalaridan to‘qima yoki trikotaj to‘qish afzalliklari va imkoniyatlaridan samarali foydalanishning yechimi topilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax politexnika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 10- apreldagi PQ-4277-son «Shisha tola, shisha tolali buyumlar, kompozit materiallar, energiya tejamkor isitish asbob-uskunalari va energiya tejashning zamonaviy tizimlarini ishlab chiqishni tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 20 - fevraldagi PQ-4198-son «Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 5- maydagi «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5989-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 6 - iyuldagi PQ-307-sonli qarorida keltirilgan «Mahalliy bazalt tolalari asosida maqsadli trikotaj mato va mahsulotlar olish texnologiyasini yaratish» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** mahalliy bazalt tolasini fizik-kimyoviy modifikatsiya qilib, ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash orqali yengsimon trikotaj va tolali pilik (roving) bilan to'ldirilgan issiqlik izolyatsion shnur mahsulotlarini olish texnologiyasini yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jahon tajribasi, ya'ni Rossiya, Ukraina, Xitoy davlatlari sanoatida yuqori samaradorlikka ega bo'lgan bazalt tolasidan olinadigan to'qimachilik mahsulotlari va ular asosidagi kompozitlarni olish qiyosiy o'rganiladi;

mamlakatimizdagi mahalliy bazalt xomashyosi tarkibi, assortimentining o'ziga xosligi mutaxassislarning mazkur masalaga alohida fan, oliy ta'lim va amaliyot hamkorligi bilan yondashuvda tadqiq etiladi;

bazalt tolasini va pilik (roving) chiziqli zichligining turlarini ko'paytirish bilan bog'liq mahalliy bazalt tola olish texnologiyasi takomillashtiriladi;

ishlatilish talablariga mos tarzda tegishli chiziqli zichlikka ega bazalt iplarini olish va sirt faol moddalar bilan ishlov berishga erishiladi;

juda ingichka tolali pilik (roving) bilan to'ldirilgan issiqlik izolyatsion shnur olish imkoniyatlari tadqiq etiladi;

maxsus sirt faol modda bilan ishlov berilgan, paypoq avtomatlari klassiga mos chiziqli zichlikka ega bazalt iplarini ishlab chiqish va ulardan yengsimon mahsulotni shakllantirishga erishiladi.

**Tadqiqotning obyekti:** bazalt tolalari asosida shakllantiriladigan yengsimon trikotaj va tolali pilik (roving) bilan to'ldirilgan issiqlik izolyatsion shnur mahsulotlarini texnologiyasi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bazalt tolasini fizik-kimyoviy modifikatsiyasi, paypoq avtomatlarida noan'anaviy usulda olingan yengsimon trikotaj mahsulotlar va shnur to'qish uskunasida olingan to'ldirgichli shnur ishlab chiqarish texnologiyasi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida yengsimon trikotaj va to'ldirgichli shnur mahsulotlarini kompleks baholash to'la faktorli tajriba usulida tajriba natijalarini qayta ishlash regression modellar qurish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bazalt tolasini dastlabki ishlashda turli aralashmali sirt faol moddalardan foydalangan holda, kompozitsion materiallar va polimerlar bilan adgeziyasi yaxshilangan mahalliy bazalt ipi olingan.

to'qimachilik sanoatida bazalt tolasini uzish kuchi va solishtirma uzish kuchi sirt faol moddalar bo'lgan poliakrilamid, glitserin va suvning miqdorlariga bog'liqligi amaliy tajribalar bilan asoslangan.

mahalliy bazalt pilik (roving) texnologik tizimida yangi sirt faol moddalar bilan ishlov berib tayyorlangan mahalliy bazalt ipidan va unga elasthan, poliamid, poliester iplarini qo'shish bilan yengsimon trikotaj namunalari paypoq to'quv

avtomatlarida elektron tizim dasturiga paypoq tovon va uch qismi o'rilishi bo'lmagan texnologiya asosida yengsimon trikotaj mahsulotlari olingan.

sirt faol moddalar bilan ishlov berib, takomillashtirilgan texnologiyaga ko'ra tayyorlangan mahalliy bazalt pilik (roving) lardan to'ldirgichsiz shnur, asosi va to'ldirgichi bazalt bo'lgan shnur, hamda asosi poliester, to'ldirgichi mahalliy bazalt bo'lgan import o'rnini bosuvchi eksportbop issiqlik izolyatsion shnurlar olingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bazalt tolasi va pilik (roving) ning chiziqli zichligi turlarini ko'paytirish bilan bog'liq trikotaj mahsulotlarini olishda ishlatiladigan bazalt tola olish uchun sirt faol modda yaratilgan;

to'qimachilik sanoati talablariga uzilish kuchi va solishtirma zichligi kuchi mos keladigan bazalt tolalar olishda sirt faol moddalarni tanlashda suv, poliakrilamid va glitserin moddalariga bog'liqligining regression tenglamalari olingan;

bazalt tolasi va pilik (roving) chiziqli zichligining turlarini ko'paytirish bilan bog'liq mahalliy bazalt tola olish texnologiyasi yaratilgan;

ishlatilish talablariga mos tarzda tegishli chiziqli zichlikka ega bazalt iplarini olish va sirt faol moddalar bilan ishlov berishga erishilgan;

juda ingichka tolali pilik (roving) bilan to'ldirilgan issiqlik izolyatsion shnur olish imkoniyatlari yaratilgan;

maxsus sirt faol modda bilan ishlov berilgan, paypoq avtomatlari klassiga mos chiziqli zichlikka ega bazalt iplarini ishlab chiqish va ulardan yengsimon mahsulotni shakllantirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining mosligi, aprobatsiya va qo'llash natijalarining ijobiyligi, shuningdek, natijalarni qiyosiy baholash mezonlariga ko'ra ularning adekvatligiga, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va qiyosiy tahlildagi ustunligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy bazalt xomashyosi tarkibining o'ziga xosligi, undan olinadigan tolali materiallar assortimenti pilik (roving) chiziqli zichligining turlarini ko'paytirish bilan bog'liq bazalt tolasini olishda sirt faol moddalarni tanlashda suv, poliakrilamid va glitsiren moddalariga bog'liqligining regression tenglamalari asosida tadqiq etish usullari bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bazalt iplarini olish va sirt faol moddalar bilan ishlov berishning o'ziga xosliklari va ingichka tolali pilik (roving) bilan to'ldirilgan eksplualatsion davri yuqori va issiqlik izolyatsion shnur olindi. yengsimon trikotaj bilan mustahkamlangan, spesifik xususiyatlarga ega kompozitlarni bazalt (yoki boshqa sintetik, sun'iy) ipdan shakllantirish bilan bir qatorda hajmli bazalt iplaridan to'ldiruvchi tarzida foydalanish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlandi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mahalliy bazalt tolasini fizik-kimyoviy modifikatsiya qilish asosida yengsimon trikotaj va tolali pilik (roving) bilan to'ldirilgan issiqlik izolyatsion shnur olish texnologiyasi bo'yicha olingan natijalar asosida:

Mahalliy bazalt tolasini fizik-kimyoviy modifikatsiya qilish texnologiyasining ratsional me'yorlarini ishlab chiqish bilan to'qimachilik sanoati talablariga mos tegishli chiziqli zichlikka ega bazalt iplarini olish, sirt faol moddalar «Mega Invest Industrial» MChJ QK da joriy etilgan («O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining 2022 - yil 26 - dekabrda №03/25-3632-son ma'lumotnomasi). Natijada yangi turdagi sirt faol modda bilan ishlov berib olingan ipning uzish kuchi 18 N gacha bo'lgan ip ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

Mahalliy bazalt tolasidan yengsimon trikotaj va tolali pilik (roving) bilan to'ldirilgan issiqlik izolyatsion shnur «Jizzax eco textile» MCHJda olingan («O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining 2022 - yil 26 - dekabrda № 03/25-3632-son ma'lumotnomasi). Natijada, trikotaj mato va choksiz yenglar bilan mustahkamlangan, spetsifik xususiyatlarga ega kompozitlarni olish imkoniyatlari ilmiy asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy – amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, nufuzli ilmiy jurnallarda va «Fan tarmog'i» (Web of Science Core Collection) yoki «Scopus» ma'lumotlar bazasida indekslangan xorijiy nashrlarda 3 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, 1 tasi xorijiy va 2 tasi Respublika jurnallarida nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 101 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan hamda amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi «**Bazalt tolalarini olish va ulardan samarali foydalanish texnika-texnologiyasi adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan bobida bazalt xomashyosidan issiqlikbardosh g'isht olish, qurilish konstruksiyalari tayyorlashda beton tarkibiga qo'shib ishlatiladigan fibradan foydalanish, tolali jgut, pilik (roving) va iplar olish, yuqori temperatura, korroziya, kimyoviy qarshilik, agressiv muhit, tuzlar, kislotalar, ishqor eritmaları ta'siriga bardoshli turli - tuman kompozitlar va funksional to'qimachilik mahsulotlari olish texnika-texnologiyasining xorij tajribasi o'rganildi.

Mahalliy bazalt minerallari zahirasi, hududiy taqsimoti, tarkibining ilmiy tahlili, undan olinadigan tolali materiallar assortimentini fan, oliy ta'lim va amaliyot mutaxassislari hamkorligida tadqiq etilishiga asoslanib, tola va pilik (roving) chiziqli zichligining turlarini ko'paytirish bilan bog'liq texnologiyani takomillashtirish, to'qimachilik sanoati talablariga mos mustahkamlangan bazalt iplarni olish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi.

Respublikamizda mavjud texnik-texnologik quvvatlardan samarali foydalanib, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida ishlatiladigan import o'rini bosuvchi, eksportbop bazalt pilik (roving) va iplaridan yangi funksional mahsulotlarni yaratish istiqbollari mavjudligi asoslandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi «**Bazalt tolalarini olish, kimyoviy ishlov berish va ekspluatatsion xususiyatlari yaxshilangan tolalardan maqsadli trikotaj mato va mahsulotlarni yaratish imkoniyatlari tadqiqi**» deb nomlangan bobida mahalliy bazalt minerallari zahirasi, hududiy taqsimoti, xususiyatlari va «Mega invest industrial» MChJ qo'shma korxonasi tolali pilik (roving) lar assortimenti o'rganilgan. Ulardan to'qimachilik tarmog'ida olovbardosh, issiqlikka chidamli lentalar, shnurlar, turli to'qimachilik matolar (to'qima, trikotaj va noto'qima) va funksional tayyor buyumlar ishlab chiqarish imkoniyatlari tadqiq etildi.

Nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili, tayanch OTM (Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti) mutaxassislari yutuqlariga asoslanildi. Bunda to'qimachilik tarmog'ining talablariga javoban bazalt pilik(roving) va iplarni fizik-kimyoviy modifikatsiya qilish uchun tegishli kompozitsiya yaratildi.

Ma'lumki, bazalt pilik (roving) va iplarni ishlab chiqarishning so'nggi bosqichi tolalarning sirtini qayta ishlash hisoblanadi.

1-jadval

**«Mega invest industrial» MChJ qo'shma korxonasi ishlab chiqarayotgan tolali pilik (roving) lar assortimenti**


Roving markasi	Elementar ip diametri, mkm	Chiziqli zichligi, teks	Foydalanilishi
VR 9-800-MP43-int	9	800	Epoksid matritsa uchun
VR 9-1200-MP43-int	9	1200	
VR 13-800-MP43-int	13	800	
VR 13-1200-MP43-int	13	1200	
VR 13-1600-MP43-int	13	1600	
VR 13-2400-MP43-int	13	2400	
VR 17-800-MP43-int	17	800	
VR 17-1200-MP43-int	17	1200	
VR 17-1600-MP43-int	17	1600	
VR 17-2400-MP43-int	17	2400	
VR 17-3200-MP43-int	17	3200	
VR 17-4800-MP43-int	17	4800	
VR 9-800-MP44-int	9	800	Poliefir matritsa uchun
VR 9-1200-MP44-int	9	1200	
VR 13-800-MP44-int	13	800	
VR 13-1200-MP44-int	13	1200	

VR 13-1600-MP44-int	13	1600	To‘qimachilik uchun
VR 13-2400-MP44-int	13	2400	
VR 17-800-MP44-int	17	800	
VR 17-1200-MP44-int	17	1200	
VR 17-1600-MP44-int	17	1600	
VR 17-2400-MP44-int	17	2400	
VR 17-3200-MP44-int	17	3200	
VR 17-4800-MP44-int	17	4800	
VR 9-600-MP44-int	9	600	
VR 9-1200-MP51-int	9	1200	
VR 13-800-MP51-int	13	800	
VR 13-1200-MP51-int	13	1200	
VR 13-1600-MP51-int	13	1600	
VR 13-2400-MP51-int	13	2400	
VR 17-800-MP51-int	17	800	
VR 17-1200-MP51-int	17	1200	
VR 17-1600-MP51-int	17	1600	
VR 17-2400-MP51-int	17	2400	
VR 17-3200-MP51-int	17	3200	
VR 17-4800-MP51-int	17	4800	

Izoh: korxonada iste'molchilar talablari asosida boshqa chiziqli zichlikdagi bazalt pilik(roving)lar tayyorlab berish imkoniyatiga ega.

Bazalt pilik (roving) va iplarga ishlov berish uchun kompozitsiya quyidagi tarkibda tayyorlandi: 10 litr SFM (sirti faol modda) uchun 20% li akril emulsiyasi eritmasi (1 litr), glitserin 1% (100 ml), 2,5% li poliakrilamid eritmasi (2 litr), suv (7 litr).

Tajriba pilik (roving) namunalarini moylash jarayoni tajriba qurilmasida amalga oshirildi (1-rasm).



**1-rasm. Moylash tajriba qurilmasining chizmasi:**

1 – pilik (roving); 2 – yo‘naltiruvchi roliklar; 3 – moylovchi eritma;  
4 – siquvchi vallar; 5 – quritish qurilmasi; 6 – moylangan tolani g‘altakka o‘rash

Laboratoriya qurilmasida bazalt pilik (roving) va iplar moylovchi eritmadan  $1,0 \pm 0,1$  m/min tezlik bilan o‘tkazildi, moylovchi eritma xona temperaturasiga ega, quritish jarayoni  $60 \pm 2^\circ\text{C}$  temperaturada amalga oshirildi. Tadqiqotlar natijasida

bazalt pilik (roving) va iplarni moylash texnologiyasining ratsional me'yorlari ishlab chiqildi.

Ikkinchi bosqichda yuqorida keltirilgan tarkib asosida tayyorlangan kompozitsiya bir kun davomida tindirildi va «Mega invest industrial» MChJ qo'shma korxonasida ishlab chiqarish sharoitida fizik-kimyoviy modifikatsiya qilingan mahalliy bazalt iplari tajriba-sinov partiyasi olindi.

Tegishli sirt faol moddalar bilan ishlov berilgan mahalliy bazalt pilik (roving) va iplarining fizik-mexanik ko'rsatkichlari «Mega invest industrial» MCHJ QK laboratoriyasi sharoitida «AGS-X» moslamasida o'rganildi.

Tadqiqotlar natijasida to'qimachilik tarmog'i talablariga (ingichka, deformatsion xususiyatlari yaxshilangan) mos bazalt iplar olish imkoniyati mavjudligi isbotlandi.

Sirt faol moddalar bilan ishlov berilgan mahalliy bazalt iplarining fizik-mexanik ko'rsatkichlari, ya'ni uzish kuchi, solishtirma uzilishdagi uzayish, solishtirma uzish kuchi qiymatlari bo'yicha yaxshi natijalarga ega bo'lganligini ko'rish mumkin (2-jadval).

Bazalt pilik (roving) va iplarini to'qimachilik tarmog'i mashina va dastgohlarida ishlatilishi ko'p jihatdan ularning mustahkamligi bilan bog'liq.

Shu sababdan, ish hajmida «Mega invest industrial» MCHJ qo'shma korxonasining laboratoriya uskunalaridan foydalanib tajriba sinov ishari o'tkazildi va natijalarning EHMda qayta ishlab regression tenglamalar olindi.

$$Y_R = 18,1188 - 0,1313x_1 - 0,6188x_2 - 0,5563x_3 - 0,2438x_1x_2 + 0,3188x_1x_3 + 0,1063x_2x_3 - 0,0938x_1x_2x_3$$

Bunda Styudent kriteriyasini formulalaridan foydalanildi.

$$S^2(\bar{y}) = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N S_u^2(y) = \frac{0,155}{8} = 0,01938;$$

$$S(\bar{y}) = \sqrt{S^2(\bar{y})} = \sqrt{0,01938} = 0,0492$$

$$\Delta b = t_T \frac{S(\bar{y})}{\sqrt{N}} = 2,12 \cdot \frac{0,0492}{\sqrt{8}} = 0,1043$$

2-jadval



### Sirt faol moddalar bilan ishlov berilgan mahalliy bazalt iplari fizik-mexanik ko'rsatkichlari

SFM tarkibi	Namuna	Uzish kuchi, N	Solishtirma uzilishdagi uzayish, %	Solishtirma uzish kuchi, mN/teks	Egiluvchanlik moduli, N/teks
Kollagen, PAA, Glitserin, suv	1-1	15.8	1.8	439.0	37
	1-2	13.0	1.5	360.7	30
	1-3	10.2	1.2	282.8	28
	1-4	9.4	1.2	261.1	33
	1-5	12.9	1.4	357.1	40
	o'rtacha	12.3	1.4	340.1	28
Akril emulsiya, PAA, Glitserin, suv	1-1	19.7	2.5	465.1	25
	1-2	19.1	2.6	483.9	25
	1-3	18.6	2.5	491.5	21
	1-4	17.4	2.5	486.8	26

	1-5	17.5	2.6	522.2	22
	o'rtacha	18.5	2.5	489.9	24
DBF, PEG-4000, OS-20	1-1	17.2	2.0	485.1	22
	1-2	16.8	1.8	468.7	26
	1-3	10.3	1.8	417.4	22
	1-4	12.4	1.8	450.5	23
	1-5	13.2	1.9	463.7	24
	o'rtacha	13.9	1.9	457.1	23

Modelning adekvatligini tekshirishda Fisher kriteriyasidan foydalanildi.



$$F_T [P_D = 0,95; f(S_y^2) = 16, f(S_{\text{HAI}}^2) = 4] = 5,85.$$



**2-rasm. PAA, glitserin miqdorining uzish kuchi qiymatlariga bog'liqligi:**

**5,8 litr bo'lganda:** 1 - 20 N, 2 - 19 N,  
3 - 18 N, 4 - 17 N, 5 - 16 N

**7 litr bo'lganda:** 1 - 20 N, 2 - 19 N, 3 - 18 N,  
4 - 17 N, 5 - 16 N



**3-rasm. PAA, glitserin miqdorining solishtirma uzish kuchi qiymatlariga bog'liqligi:**

**5,8 litr bo'lganda:** 1- 427,4 mN/teks, 2- 384,98  
mN/teks, 3-342,54 mN/teks.

**7 litr bo'lganda:** 1- 512,3 mN/teks,  
2- 427,4 mN/teks, 3- 384,98 mN/teks,  
4- 342,54 mN/teks, 5- 300,1 mN/teks


Bazalt pilik (roving) va iplarga ishlov berishda foydalanilgan moylovchi kompozitsiya (SFM) tarkibi tashkil etuvchilarining turli qiymatlarining fizik-mexanik ko'rsatkichlarga ta'siri grafiklari olindi.

Dissertatsiyaning uchinchi «**Funksional to'qimachilik mahsulotlarini olish texnologiyasi tadqiqi**» deb nomlangan bobida «Texnik tekstil» tushunchasining mohiyati, tasnifi berilgan.

To'qimachilik materiallar, ya'ni to'qima, trikotaj va noto'qima matolar tarkibiy tuzilishi, mohiyati va xususiyatlari hamda ular asosida funksional kompozit va mahsulotlar olinishi xomashyoning o'ziga xosligi bilan bog'lab bayon etilgan.

Texnik trikotaj yo'nalishidagi to'rsimon trikotaj bilan mustahkamlangan polimerlar, yengsimon to'ldirgichli filtrlar, kichik diametrli yengsimon matbaa


qoplamalari, qo‘l himoya yenglari va tibbiyot elektrod osti qoplamalarini olish bilan bog‘liq ilmiy amaliy ishlar tadqiqi keltirilgan.



**4-rasm. To‘qimachilik matolari turlari:**

*a* – to‘qima; *b* – trikotaj; *v* - noto‘qima

Bunda, trikotaj asosidagi mahsulotlarni ishlab chiqarish afzalliklariga alohida urg‘u berilgan. Ushbu ustunlik trikotaj mato yoki mahsulotlar halqa ko‘rsatkichlari bilan belgilanishi va ularning o‘lchamlariga ta’siri ya’ni cho‘zilgan glad trikotaj geometrik modeli bilan bog‘liqligi bayon etilgan (5-rasm).



**5-rasm. Cho‘zilgan glad trikotaj geometrik modeli:**

*a* – bo‘yiga; *b* – eniga; *c* – ikki o‘q bo‘ylab:  $A_{min}$  va  $B_{max}$ ,  $B_{min}$  va  $A_{max}$  yoki  $A_p$  va  $B_p$  – bo‘yiga cho‘zilganda halqa qadami va halqa qator balandligi, eniga yoki ikki o‘q bo‘ylab cho‘zilganda;  $d_y$  - shartli diametr; *a*, *b*, *c*, *d*, *e* – halqa qismlari nuqtasi.


Nazariy tadqiqotlarga ko‘ra halqa qadami  $A$  qiymati halqa qator balandligi  $B$  ga nisbatan doim ikki baravar katta bo‘ladi.  $A_p$  va  $B_p$  qiymatlari trikotajning vertikal va gorizonta kuchlar ta’siridagi deformatsion holatni ifodalaydi: bunda  $A \rightarrow A_{max}$ ,  $B \rightarrow B_{min}$  va aksincha,  $B \rightarrow B_{max}$ ,  $A \rightarrow A_{min}$ .

Dissertatsiya mavzusi, maqsadi va belgilangan vazifalarga mos tarzda tadqiqotlar hajmida aylana ignadonli mashinalarda, jumladan paypoq avtomatlariga kengroq yondoshilgan. Shu bilan birga yengsimon mato va mahsulotlar olishga ahamiyat berilgan hamda yeng enini nazariy jihatdan aniqlash formulasi keltirilgan:


bunda,  $I$  – ignadon ignalari soni;  $A$  – halqa ustunchalari bo‘yicha yonma-yon joylashgan halqalar oralig‘i, ya‘ni halqa qadami, mm.

Ishda ikki ignadonli aylana trikotaj mashinalar texnologik imkoniyatlari yoritilgan. Ularda nisbatan yo‘g‘on, hajmli iplaridan foydalanib, qator yengsimon filtrlarning olinish mohiyati (6-rasm), nazariy va amaliy tadqiqotlarga tayangan holda, mahalliy bazalt rovinglardan to‘ldirgichli texnik trikotaj tuzilishi varianti (7-rasm) keltirilgan hamda, ulardan foydalanish g‘oyasi ilgari surilgan.

Nisbatan kichik diametrlil (2 dan -  $4^{1/2}$  dyuymgacha) paypoq to‘quv avtomatlari texnik tasniflari va texnologik imkoniyatlari borasidagi batafsil ma‘lumotlar keltirilgan. Ularda trubkasimon choksiz yenglarni olish mohiyati keltirilgan (8-rasm).




**6 – rasm. Yengsimon trikotajni olishda to‘ldirgichning yo‘naltirilishi:**  
 P – rippshayba; Ц – silindr;  $H_y$  – qo‘shimcha ipyo‘naltirgich; Y – to‘ldirgich;  
 C va  $C^1$  –silindr va rippshayba eski halqasi



**7 – rasm. To‘liqmas lastik asosidagi aralash to‘ldirgichli trikotaj:**  
 1- to‘ldirgich; 2 –to‘liqmas lastik qatorlari

Paypoq avtomatlarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish, mavjud quvvatlardan noan‘anaviy xom ashyo turlarini ishlatib texnik trikotaj olish bilan bog‘liq imkoniyatlar ochib berilgan. Bunda, paypoq avtomati klassi tushunchasi va uning ip chiziqli zichligi bilan mutanosiblik formulalari keltirilgan.



**8-rasm. Yengsimon trikotajning shakllanishi:** H – ip; 1 - 45 ignalarda hosil bo‘lgan halqa ustunchalari

Igna qadami, ikki qo‘shni ignalar markazlari orasidagi masofa bo‘lib, u ignadon uzunligi birligida nechta igna qadami joylashganligini bildiradi va quyidagi formula orqali topiladi:

$$K=E/t \quad (2)$$


bunda, E-ignadon uzunlik birligi (E=25.4 mm, bir ang. dyuym); t-igna qadami, mm.

Trikotaj mashinalari klassi va ip chiziqli zichligi mutanosibligini trikotaj asoschilaridan biri professor I.I.Shalov tomonidan ishlab chiqarilganligi aytilgan hamda umumiy formulasi berilgan:

$$1000/T \geq K^2/10 \quad (3)$$

bunda, T-ipning chiziqli zichligi, teks; K-mashina klassi.

Shuningdek, ma‘lum diametrli trikotaj mashinadan olinayotgan yengsimon mato yoki mahsulot enining (III) nazariy va amaliy ko‘rsatkichlari bir-biridan farqlanishi, aynan ushbu omil ko‘rsatkichini ma‘lum darajada texnologik sozlash bilan o‘zgartirish imkoniyati mavjudligi keltirilgan. Shuningdek, mashinani sozlash bilan bog‘liq barcha texnik-texnologik imkoniyatlar sifatli mahsulot olish bilan bir qatorda trikotaj tarkibiy tuzilishi deformatsiyasi va qo‘zg‘aluvchanligi qonuniyatlariga asoslanishi isbotlangan (9-rasm).



**9 - rasm. Yeng enining kuchlar ta‘siridagi deformatsiya modeli:** 1-P ( $V_1$ ) vertikal va gorizontalkuchlar ta‘siridagi yeng holati; 2-( $V_2$ ) gorizontalkuchlar ta‘siridagi max cho‘zilgan holati; 3-( $V_3$ ) vertikal kuchlar ta‘siridagi max cho‘zilgan holati;  $\alpha_1$  va  $\alpha_2$ -ko‘ndalang va bo‘ylama chiziqlar qiyalik burchagi


Barcha holatlarda yengsimon trikotajning deformatsiyalanishi va qo‘zg‘aluvchanligini hisobga olgan holda, halqa qadamining qiymati minimal ( $A_{\min}$ ), teng kuchlar ta‘sirida ( $A_0$ ), maksimal ( $A_{\max}$ ) va muvozanat ( $A_r$ ) holatlarda bo‘ladi. Vintsimon tuzilishdagi yeng enining kuchlar ta‘siridagi deformatsiya modelini ko‘rib chiqamiz (9-rasm). Bunga asoslangan holda, yeng enini minimal ( $III_{\min}$ ), teng kuchlar ta‘sirida ( $III_0$ ), maksimal ( $III_{\max}$ ), va muvozanat ( $III_p$ ) holatlari va uning o‘zgarishini aniqlaymiz. Aylana ignadonli mashinalardan ko‘ndalangiga hosil qilingan yengda halqa qatorlari vintsimon rapportga ega, bu bevosita mashina sistemalar soniga bog‘liqdir. Bunda ko‘ndalangiga hosil qilingan vintsimon halqa

qatorlari hosil bo'ladi, ular ma'lum qiyalik burchagi  $\alpha$  ga egadir hamda quyidagicha aniqlanadi:

$$\operatorname{tg} \alpha = nB / \Pi A, \quad (4)$$


Bu yerda,  $n$  – avtomatdagi halqa hosil qiluvchi sistemalar soni;  $A$  – halqa qadami, mm;  $B$  – halqa balandligi, mm.

Yuqoridagi barcha nazariy va amaliy omillarni e'tiborga olgan holda «Jizzax eco textile» MChJ korxonasining paypoq to'quv avtomatlarida bazalt pilik (roving) va unga elastan, poliamid, poliefir iplarini qo'shish bilan turli variantlarda yengsimon trikotaj namunalari to'qildi (10-rasm). Bunda paypoq to'qish texnologiyasidan farqli tarzda paypoq tovon va uch qismi o'rilishi mavjud emas, ya'ni elektron tizim dasturiga o'zgartirish kiritilgan.



**10 - rasm. Paypoq avtomatida yengni shakllantirish jarayoni**

«Jizzax eco textile» MChJ korxonasi ishlab chiqarish sharoitida esa to'ldirgichsiz shnur, asosi va to'ldirgichi bazalt bo'lgan shnur, hamda asosi poliefir, to'ldirgichi bazalt bo'lgan shnur tajriba ishlab chiqarish partiyasi olindi (11-rasm). Bunda, an'anaviy shnur to'qish dastgohlari imkoniyatlaridan foydalanildi. Yangi sirt faol moddalar bilan ishlov berib, takomillashtirilgan texnologiyaga ko'ra tayyorlangan mahalliy bazalt pilik (roving) lardan import o'rnini bosuvchi eksportbop maxsus shnurlar turli assortimentini olish mumkinligi ilmiy va amaliy jihatdan isbotlandi.



**11 - rasm. Paypoq avtomatida o'rilgan yengsimon trikotaj ko'rinishi**



*a*

*b*

**12 - rasm. Shnur ko‘rinishi:** *a* - bazalt va paxta ipidan shnur; *b* – bazalt shnur



*a*

*b*

**13 - rasm. To‘ldirgichli shnur ko‘rinishi:** *a* – bazalt shnur; *b* – asosi poliester, to‘ldirgichi bazalt shnur


Bazalt tolasidan olingan issiqlik izolyatsion shnurini «Mega invest industrial» MChJ qo‘shma korxonasi laboratoriyasida «SNOL 15/1200» markali elektr pechiga solinib, pech eshiklari yopilgan holda sinovdan o‘tkazilganida, issiqlik izolyatsion shurning fizik- mexanik ko‘rsatkichlari +980 °C gacha o‘zgarmaganligini tadqiq qilindi.



**14-rasm. «SNOL 15/1200» markali elektr pechi.**

Bazaltning yuqorida keltirilgan qator ijobiy xususiyatlari mutaxassislarning ilmiy va amaliy qiziqishlarini o‘rgangan holda, uning fizik-texnik, fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini yanada chuqurroq tadqiq etish asosida olingan issiqlik izolyatsion shurning va boshqa shnurlarni issiqlikka chidamligi tadqiq qilindi. Olingan tadqiqot natijalari 15-rasmda keltirilgan.

«Mega invest industrial» MChJ qo‘shma korxonasida fizik-kimyoviy modifikatsiya qilib, xususiyatlarini yaxshilangan mahalliy bazalt pilik (roving) lar va iplar asosida funksional yenglar va to‘ldirgichsiz, hamda to‘ldirgichli shurni ishlab chiqish texnologiyalari «Jizzax eco textile» MCHJ korxonasiga joriy etilib, tajriba ishlab chiqarish partiyalari olindi.



**15-rasm. Turli xil tolalardan olingan issiqlik izolyatsion shurning issiqlikka chidamliligi**

Dissertatsiyaning to‘rtinchi «**Mahalliy bazalt iplaridan issiqlik izolyatsion mahsulotlar olish texnologiyasining iqtisodiy samaradorligini baholash**» deb nomlangan bobida bazalt pilik (roving) xususiyatining yaxshilanishi ulardan olinadigan fibrallar, ya’ni ma’lum uzunlikda kesib tayyorlanadigan tolalar xususiyatlarining ham yaxshilanishini ta’minlaydi. Bu o‘z navbatida bazalt fibrallar bilan mustahkamlangan polimer kompozitlar, polimer quvurlar, beton konstruksiyalarining sifatining tubdan yaxshilanishiga olib kelishi bayon etilgan.

Qolaversa, mahalliy bazalt pilik (roving) va iplaridan to‘qimachilik tarmog‘ida samarali foydalanib, sohalararo integratsiyani kuchayishi bilan halq ho‘jaligi ehtiyojlari uchun funksional mahsulotlarni olish imkoniyatlari kengayadi. Bu o‘z navbatida mahalliy bazalt xom ashyosini chuqur qayta ishlab qo‘shimcha qiymatga ega import o‘rnini bosuvchi, eksportbop zamonaviy funksional mahsulotlar olish va qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish imkonini berishi keltirilgan.

Bazalt iplari ishlab chiqarish va to‘ldirgichli shnur olish texnologiyasining iqtisodiy samaradorligini baholash «Xalq xo‘jaligiga yangi texnika, yangiliklar va ratsionalizatorlik takliflarini joriy etishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uslubiyati»ga asoslanib amalga oshirilgan.

To‘ldirgichli shnur olish texnologiyasining iqtisodiy samaradorligi ikki xil variantda baholandi. Bunda, 1 metr shnur uchun iqtisodiy samara: 1-variantda

(shnur asosi - bazalt pilik ( roving) - 1200 teks; to'ldirgich bazalt pilik ( roving) - 2500 teks) - 1691 so'mni; 2-variantda (shnur asosi - poliester ipi - 1800 teks; to'ldirgich bazalt pilik ( roving) - 2500 teks) - 1947 so'mni tashkil etgan.

## XULOSA

1. Bazaltning yuqori temperatura, korroziya, kimyoviy qarshilikka ega bo'lishi va agressiv muhit, tuzlar, kislotalar, ishqor eritmalari ta'siriga bardoshligi kabi afzalliklari undan funksional mahsulotlar olish istiqbollarini ochib berishi o'rganildi.

2. Mahalliy bazalt minerallari tarkibini chuqur ilmiy tahlil qilish, undan olinadigan tolali materiallar assortimentini fan, oliy ta'lim va amaliyot mutaxassislari hamkorligida tadqiq etish, tola va pilik (roving) chiziqli zichligining turlarini ko'paytirish bilan bog'liq texnologiyani takomillashtirish, to'qimachilik sanoati talablariga mos mustahkamlangan bazalt iplarni olish imkoniyatlari mavjudligi o'rganildi.

3. Mahalliy bazalt materiallari, ayniqsa «Aydarko'l» bazalti tarkibi nisbatan qattiq hisoblanishi hamda uning erish darajasi boshqa hududlarinikiga nisbatan 250÷300 °C yuqori, ya'ni 1450÷1550 °C tashkil etishi «Mega invest industrial» MChJ qo'shma korxonasida olib borilgan amaliy tajribalar asosida aniqlangan.

4. «Mega invest industrial» MChJ qo'shma korxonasida har xil tarkibli SFM dan olingan piliklarning solishtirma uzish kuchlarini tahlillari asosida Akril emulsiya, PAA, Glitserin, suv tarkibli moddalardan bilan ishlov berilgan bazalt tolali pilik (roving)lardan solishtirma uzish kuchining 489,9 mN/teks bo'lishi aniqlandi.

5. Nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili, tayanch OTM mutaxassislari yutuqlariga asoslanib, to'qimachilik tarmog'ida ishlatiladigan bazalt tolasini fizik-kimyoviy modifikatsiya qilish uchun tegishli kompozitsiya yaratildi va ratsional me'yorlari uzilish kuchi 18N ga tangligi, SFM miqdorlari suv 7 litr, PAAning 5% va glitserinning 20 gr ni tashkil qilgani aniqlandi.

6. Aylana ignadonli trikotaj mashinalar, jumladan paypoq avtomatlari texnik-texnologik jihatlari va ularda «Mega invest industrial» MChJ qo'shma korxonasida fizik-kimyoviy modifikatsiya qilib olingan bazalt pilik (roving) lardan foydalanib funksional mahsulotlar olish imkoniyatlari aniqlandi.

7. «Jizzax eco textile» MChJ korxonasiga tadqiqot natijalarini joriy etish bilan funksional yenglar va to'ldirgichsiz hamda to'ldirgichli shnur tajriba-sinov namunalari partiyasi olindi.

8. Tadqiqotlar asosida keramika, shisha tolali va bazalt tolalardan olingan shnurlarni issiqlikka chidamliligi «Mega invest industrial» MChJ qo'shma korxonasida mavjud bo'lgan pechda sinovlardan o'tkazilganda bazalt tolasidan olingan shurning issiqlikka chidamliligi 980 °C ga chidashi isbotlandi.

9. Mahalliy bazalt pilik (roving)dan «Jizzax eco textile» MChJ korxonasida to'ldirgichli shnur olish texnologiyasining iqtisodiy samaradorligi 2 xil variantda 1 metr 1691 so'm va 1947 so'mni tashkil etishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2020.Т.115.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ДЖИЗАКСКОМ  
ПОЛИТЕХНИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**ДЖИЗАКСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**МАТЧОНОВА НАРГИЗ НОРТАЕВНА**

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ЦЕЛЕНАПРАВЛЕННЫХ  
ТЕКСТИЛЬНЫХ ИЗДЕЛИЙ НА ОСНОВЕ МЕСТНЫХ  
БАЗАЛЬТОВЫХ ВОЛОКОН**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная  
обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей Аттестационной Комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2021.1.PhD/T2119**

Диссертация выполнена в Джизакском политехническом институте.  
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Джизакском политехническом институте ([www.jizpi.uz](http://www.jizpi.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziynet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Рахимов Фарход Хушбакович**  
доктор технических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Сулаймонов Рустам Шенникович**  
доктора технических наук, профессор

**Дониёрова Матлуба Адашбаевна**  
кандидат технических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Наманганский инженерно-технологический институт**

Защита диссертации состоится «31» марта 2023 года в 11<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020.T.115.01 при Джизакском политехническом институте по адресу: 130100, г. Джизак, ул. И.Каримова-4, Административное здание Джизакского политехнического института, малый зал конференции, тел.:(372) 226-46-05, факс: (372) 226-45-47; e-mail: [dgpi\\_info@edu.uz](mailto:dgpi_info@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Джизакского политехнического института (зарегистрирована под № \_\_\_\_\_). Адрес: 130100, г. Джизак, ул. И.Каримова-4, тел.:(372) 226-46-05,

Автореферат диссертации разослан «15» марта 2023 года.

(Реестр протокола рассылки № 10 от «15» марта 2023 года).



**А.К.Усманкулов**  
Председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**И.З.Аббазов**  
Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.ф.т.н., доцент

**А.Парпиев**  
Председатель Научного семинара при научном совете по  
присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Производство трикотажных изделий занимает одно из ведущих мест в мире. Ассортимент продукции расширяется, а требования, предъявляемые к ассортименту, также, соответственно, возрастают. Необходимость получения высококачественной и конкурентоспособной продукции, а также использование технологий, направленных на дальнейшее повышение качества трикотажных изделий, занимают одно из ведущих мест. «Учитывая во внимание, что прирост текстильного рынка в мировом масштабе с 2022 года по 2030 годы вырастет на 4,0% и по отчёту Global Textile Market Size & Share Report за 2022-20230 годы, текстильный рынок возрастет до 1420,3 миллиарда долларов»<sup>1</sup>, это прежде всего способствует применению передовых технологий в этой промышленности и внедрению их в производство. В связи с этим важным считается использование базальтовых волокон в текстильной промышленности, особенно в производстве трикотажных изделий.

В мире, используя высокомодульные нити, «технический текстиль», т. е. расширяя ассортимент текстильных изделий, используемых в технических целях и нетрадиционных со специфическими характеристиками (спортивные товары, некоторые детали автомобилей и мотоциклов, корпуса лодок и лодок, детали, имеющие сложные профили, различные строительные панели, тепло-, звукоизоляционные и негорючие изделия, строительные конструкции, крылья ветреных электрогенераторов) проводятся научно-исследовательские работы, направленные на получение инновационной продукции. В связи с этим особое внимание уделяется производству таких строительных материалов, как «фибра» из базальтового волокна, плиты с высокими теплоудерживающими свойствами, композитная арматура, композитные сетки.

Важно последовательно и стабильно развивать промышленность базальтового волокна в нашей республике, увеличить ассортимент выпускаемых полуфабрикатов и готовых изделий за счет внедрения на предприятиях отрасли современного оборудования, создавать целевые продукты с высокой добавленной стоимостью и использовать их в развитии конкурентоспособных товаров на мировом рынке. Принимаются широкомасштабные работы по созданию ресурсосберегающих технологий получения различных композиционных материалов на основе текстильных изделий, в том числе по производству целенаправленных поштучных деталей методом трикотажа, и, таким образом, достигаются определенные результаты.

---

<sup>1</sup> <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/textile-market>

В нашей республике принимаются масштабные меры по модернизации текстильной промышленности, глубокой переработке местного базальтового сырья, увеличению объемов производства высококачественных, конкурентоспособных и экспортоориентированных, импортозамещающих готовых изделий, технических текстильных изделий, и достигаются определенные результаты по проведению широкомасштабных работ. В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы, в том числе «...увеличение объемов производства промышленной продукции в 1,4 раза, увеличение объемов производства продукции текстильной промышленности в два раза, изучение влияния отраслей текстильной промышленности на производство при вступлении во Всемирную торговую организацию...»<sup>2</sup> определены важные задачи. При реализации этих задач имеет важное значение создание и освоение нового ассортимента рукавного трикотажа и изоляционных шнуров, в основе которых лежит эффективное использование сырья и безотходные технологии производства.

